



TURKOVUL VA BESHBULOQ QISHLOQLARI SHEVASIDA CHORVACHILIK VA EKINCHILIKKA XOS DIALEKTAL SO'ZLAR

Oyatullo Nasrullayev

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot
universiteti 2-bosqich magistrant
oyatullaxondamirovich@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7858771>

ARTICLE INFO

Received: 15th April 2023

Accepted: 23th April 2023

Online: 24th April 2023

KEY WORDS

Sheva, qishloq shevasi, Turkovul, Beshbuloq, dialektal leksika, dialektal leksikaning o'nta turi, dialektal ma'noning ifodalanishi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek xalq shevalarining leksik boyligi Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevalari misolida o'rganildi. Bu hudud shevalari oldingi tadqiqotlarda tilga olinmagan, ya'ni birinchi marta leksik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Shevalarning leksik boyligi dialektal so'zlarning o'nta turi misolida bayon etilgan va oltmish uchta dialektal so'z izohlangan. Bu so'zlarga xos leksik xususiyatlarga e'tibor berilgan.

Har qanday xalqning turmush tarzi, tirikchilik o'tkazish yo'sini, avvalo, uning tilida namoyon bo'ladi. Zomin-turk urug'i vakillari minglab yillardan buyon chorvachilik bilan shug'ullanib, bu ishni san'at darajasiga ko'tarishgan. Shuning uchun ularning tilida jonivorlarning turi, jinsi, muchalari, ularni boqish, saqlash, ko'paytirish, so'yish, tug'dirish, haydash, chaqirish, alqash, so'kish va boshqa holatlarga bog'liq ko'plab so'z va atamalar yuzaga kelgan.

Äjil – ayil. Egar yoki to'qimni mahkamlash uchun ishlatiladigan moslama. Jundan enli qilib eshak yoki otning qorniga yetadigan uzunlikda to'qilib, har ikki uchiga to'qa o'rnatiladi. To'qaning bittasiga ishlangan teri – charmdan uzun tasma bog'langan bo'ladi. Ana shu tasma egar yoki to'qim ustidan o'tkazilgan ayilning ikki uchini ulovning qorni orqali bir-biriga birlashtiradi.

Äjyir – ayg'ir. Kuyga kelgan biyalarni qochirish uchun maxsus tanlangan ot. U yilqi uyuriga yetakchilik qiladi, qo'riqlaydi, boshqa ayg'irlarni aralashtirmaydi. Ayg'ir so'zining tarixiy ildizi juda qadimga borib taqaladi. U qadimgi turkiy tilda “adg'ir” shaklida qo'llangan¹, eski turkiy til davriga kelib, “d” tovushi “y” tovushiga aylangan², eski o'zbek tili davrida “d” undosh “y” tovushiga evrilib, “ayg'ir” atamasi hosil bo'lgan. *Zattar äjyirim bār – Zotdor ayg'irim bor.*

Ät – ot. Uch yoshdan oshgan erkak yilqi. “Ät” nomi qadimgi turkiy yodnomalarda ham qo'llanilgan, hozirgi turkiy tillarning hammasida ham qo'llanadi. Bu so'z mo'g'ul tilida ham

¹ Древнетюркский словарь. – Л. Наука, 1969. – С. 14.

² Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. – Тошкентб 1963. Т. – Б.121



turli variantlarda ishlatiladi.³ Bosim To'ychiboyev va Qozoqboy Qashqirining "Zominning til qomusi" kitobida adabiy tildagi ot so'zi o'rnida yilqi so'zini qo'llashni tavsiya qiladi. Chunki bu barcha yoshdagi otlarga nisbatan qo'llanadi. *Ät jigít kíşiga joldäş bäsín.*

Ašlav – oshlov. Hayvon terisiga ishlov berish jarayoni hisoblanadi. Terining xomligida ayron surtiladi, keyin bir-ikki hafta saqlangandan so'ng, undan nimadir tayyorlanadi. *Tursunmurät äkä terini jaxši ašlardi – Tursunmurod aka terini yaxshi oshlardi.*

Boš-boš – bo'sh-bo'sh. Chorvani qaytarish, boshqarishda qo'llaniladigan so'z. *Boš-boš, boš-ey, jänivär!- Bo'sh-bo'sh, bo'sh-ey, jonivor!*

Bäšliq – boshliq. Uy hayvonlarini boshqarishni osonlashtiradigan moslama, no'xta.

Buzāv – buzoq. Olti oylikkacha bo'lgan qoramol nomi. Sigirning bolasi, buzoq so'zining fonetik talaffuz shakli. So'z oxiridagi q tovushi o'rnida ishlatilgan. Misol: Akañ böšälip ketgan *buzāvni* izlap ketgändi. Chorvachilik va dehqonchilik leksikasi guruhiga mansub dialektal so'z. *mBuzāvdi suvāriš keräk – Buzoqni sug'orish kerak.*

Burundiқ – burunduқ. Qoramollarni yetaklash va boshqarishni osonlashtirish maqsadida ularning burnidan o'tkaziladigan moslama. *Buqāni burundiqi bošälip qopti – Buqaning burunduqi bo'shalib qolibdi.*

Beläni – belangi. 1. Yomon qiliqli ot yoki eshak. *Ešägiñ beläni čiқdi-ku, räsä tepjäpti.* 2. Bel og'rig'kasalligini orttirib olish. *Äyir juk kotärmä, beläni bop qäläsän.*

Bogäläk – bo'galak. So'na. *Bogäläk si:jirlärni chäqip täšäpti.* B. To'ychiboyev, Q. Qashqirining "Zominning til qomusi"⁴ kitobida bu so'zni gobäläk shaklida beradi, shuningdek uning kapalak ma'nosini beruvchi shakli borligini aytib o'tadi.

Bogäläkläš – bo'galaklash. So'na chaqqan qoramollarning bezovta bo'lish holati. *Kun isigändä mällär bogäläk bo'lib, ujęä qäjtíp kepti – Kun isiganda qoramollar bo'galak bo'lib, uyga qaytib keldi.*

Boš-boš – bo'sh-bo'sh. Sigirlarni chaqirish va haydashda ishlatiladigan undov so'z. *Boš-boš, qäjt-ey qäšqä Bo'sh-bo'sh, qayt-ey qashqa.*

Donän – do'nän. To'rt yoshga to'lgan otning atalishi. *Ulāqqä donänini minib kepti – Uloqqa do'nänini minib kelibdi.*

žijrän – jiyron. Qizil sarg'ish rangdagi otning atalishi.

žilāv – jilov. Yuganning boshliqdan yuqori qismi. Egarda o'tirib otini boshqaradigan anjomi. *Ätniñ žilāvini äpkeš esiñdän chiqmäsin – Otning jilovini olib kelish esingdan chiqmasin.*

žir – jir. 1. Chorvaning quyruğıdan boshqa yerdagi moyi. Bäquvdagi qo'çqärimiz räsä žir pitipti – Boquvdagi qo'chqorimiz rosa jir pitibdi.

žugan – jugan. Yugan, og'zidan o'tkazib boshiga ilinib, boshqarishni osonlashtiruvchi otning anjomi.

Kotäräm – ko'taram. Belangi so'zining ushbu shevadagi varianti. Ochlik yoki kasallik tufayli hayvonlarning o'rnidan turolmay qolishi. *Mälīgä jaxši qärämägäni uçun šunäqä bopti.*

Nävvas – novvos. Yoshi ikkidan oshgan erkak qoramol.

Pičmä – pichma. Bichilgan qoramol. *Pičmä qoçqär tez semirädi – Bichilgan qo'chqor tez semiradi.*

³ Базарова Д., Шарипова Х. Развитие лексики тюркских языков Средней Азии и Казахстана. – Ташкент. Фан, 1971. – С.10.

⁴ То'ychiboyev B. Yo'ldoshev Q. Zominning til qomusi – Toshkent, "Akademnashr", 2012. –B. 56, 207.



Pishak – mushuk. [pišäk] Mushuk soʻzini shevada ifodalangan soʻz shakli. Misol: *Pišägiñni* junlari tökilib başlabdi. Old qator unlilari sababli undoshlar palatal(yumshoq) talaffuz qilingan. Uy hayvonlari leksikasiga doir soʻz.

Siyir – sigir. [si:jir] Sigir soʻzining sheva leksikasidagi talaffuz shakli. Biz kelganimizda Halima māmā *sī:jir* soyib ötirardi. Portlovchi g undoshi oʻrnida sirgʻaluvchi j undoshi qoʻllangan. Old qator i unlisi sababli undoshlar palatal(yumshoq) tus olgan. Chorvachilik va dehqonchilik leksikasi guruhiga mansub dialektal soʻz.

Sävliq – sovliq. Sogʻiladigan sigirga nisbatan qoʻllaniladigan soʻz. *Sävliqqä jäxšiläp qärä, suti kämäjip ketmäsin*. Ammo bu soʻz boshqa shevalarda uch yoshdan oshgan tuqqan qoʻyga nisbatan qoʻllanishini koʻrishimiz mumkin.

Täginčä – tagincha. Ot yoki eshak qorni tagidan oʻtkazilib, egar yoki toʻqimning oldinga ketib qolishidan saqlaydigan anjom. *Täginčani jäxšilap bāylädiñmi? – Taginchani yaxshilab bogʻladingmi?*

Tappak – tappi [täppäk] hayvon tezigidan baʼzan koʻmir aralashtirib yoqiladigan yoqilgʻi. Fonetik oʻzgarish asosida talaffuz qilinadi. Misol: Anvar qörqqänidän *täppäkdek qätip qäldi*(ibora, frazeologik dialektal soʻz) . Bu qišläqqagaz jetib kelmagan bölip, bütün qišläq ahälisi qiši bilan *täppäk* jäqip čiqišardi. Old qator a unlisi sababli palatal(yumshoq) talaffuz qilingan. Mol goʻngiga koʻmir aralashtirib tayyarlanadigan yoqilgʻi. Chorvachilik va dehqonchilik leksikasi guruhiga mansub dialektal soʻz.

Tušäv – tushov. Juda uzoqqa ketib qolmaslik uchun ot yoki eshakning oldingi oyoqlarni bir-biriga bogʻlab qoʻyish uchun ishlatiladigan anjom. Bir quloch chiqadigan arqon yoki kanop ipidan qilinadi. *Säpärbäj ätini tušavläp mälini bäqip ketardi – Safarboy otini tushovlab molini boqib ketardi*.

Tezäg – tezak. Har joyda yotgan chorva goʻngi. *Tezäklärni yoqišda išlatsa bolädi – Tezaklärni yoqishda ishlatsa boʻladi*.

Täkä – taka. Bir yoshdan oshgan erkak echki. *Täkä sätib älmäxčimän – Taka sotib olmoqchiman*.

Čivi – chuv. Esh, yoʻldosh. *Qärä, sijir chivini jep qojmäsin – Qara, sigir chivini yeb qoʻymasın*.

Čigi-čigi – chigi-chigi. Echkilarni chaqirishda foydalaniladigan undov soʻz.

Čo – choʻ. Qoʻy va qoramollarni haydashda foydalaniladigan undov soʻz. *Čo, jänvär – Choʻ, jonivor*.

Čogo-čogo – choʻgoʻ-choʻgoʻ. Buzoqlarni chaqirishda ishlatiladigan undov soʻz.

Et – et. Forscha *goʻsht* soʻzining oʻzbekchasi.⁵

Qäšqä – qashqa. Peshonasi oq boʻlgan qoramol. *Qäšqasi bär jänvär yäqädi – qashqasi bor jonivor yoqadi*.

Qotän – qoʻtan. Qoʻylar qamaladigan, atrofi ixota bilan oʻralgan joy. *Qotändägi qojlärdi dälägä qojvär – Qoʻtondagi qoʻylarni dalaga qoʻyib yubor*. Qujruy – quyruq, dum. *Qojni qujruyidan jizza qipti*.

Qulun – Otning tugʻilganidan to birinchi junini tashlashgacha boʻlgan davri.

Qumäläq – qumaloq. Qoʻylar qoldiradigan goʻng.

⁵ Toʻychiboyev B. Yoʻldoshev Q. Zominning til qomusi – Toshkent, “Akademnashr”, 2012.



Qurej-qurej – qurey-qurey. Qo‘ylarni chaqirish va haydash uchun ishlatiladigan so‘z.

Qirqim – qo‘y-echkilarni junini qirqish jarayoni shunday ataladi. Asosan, bahorda kunlar isishi bilan amalga oshiriladi.

Qirčanyi – qirchang‘i. Qarovsiz qolgan, ozg‘in qoramol. Mālinā jāxšilāp qārāmājsānmi, qārā āzip ketkānini - Molingga Yaxshilab qaramaysanmi, qara ozib ketganini.

yunāžin – g‘unojin. Ikki yoshlar atrofidagi urg‘ochi qoramaol.

yonān – g‘o‘non. Ikki yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan ot nomi.

Hāni – hangi. Voyaga yetgan erkak eshak. *Hāņisini minib keptimi?*

Hokkiz – ho‘kiz. Ikki yoshdan oshgan bichilgan qoramol.⁶ Ammo ushbu shevada buqa o‘rnida kengroq qo‘llaniladi va buqa ko‘proq boquvdagi qoramolni anglatadi. *Hokkiziņā qārā, māllārdi otlātkāni qojmājāpti – Ho‘kizingga qara, mollarni o‘tlatgani qo‘ymaypti.*

Bāvliq – bovliq. O‘rilgan g‘alla, pichan makkajo‘xori poyalarini bog‘lash uchun ishlatiladigan qayishqoq o‘simlikdan tayyorlanadigan narsa. Odatda qamish, qiyoq kabi o‘simliklar ishlatiladi. *Mākkājini bāylāšgā bāvliq orip keliš kerāk – Makkajo‘xorini bog‘lashga bovliq o‘rib kelish kerak.*

Kāvil – Kovul. Yerga yopishib o‘sadigan qizil mevali, tikanakli dorivor o‘simlik. *Jāšligimizdā rāsā kāvil terip jeridik – Yoshligimizda rosa kovul terib yer edik.*

Kārč – karch. So‘yilgan qovun-tarvuz bo‘lagi, karj, tilim. *Tārvizni kārč qildi – Tarvuzni karj qildi.*

Kurmāk – kurmak. 1. Sholipoyada o‘sadigan yovvoyi o‘simlik turi. *Guručdānām kurmagi kop - Guruchdan ham kurmagi ko‘p.* 2. Arqonni yechmaydigan qilib bog‘lash usuli.

Māšāq – moshoq. O‘rimdan so‘ng don ekinlarini Boshhoqlarni terib chiqish jarayoni.

Ortāsini āčiš – o‘rtasini ochish. Asosan, g‘alla yanchish xirmonning chetidan boshlanadi va aravaga qo‘shilgan ot yoki eshak ham ko‘proq xirmonning chetidan yuradi. Yanchish jarayoni o‘rtalarida Xirmonning o‘rtasi ochilib, arava oyoqlari tagiga tashlanadi.

Sāmān – g‘alla somoni.

Sāvzi – sabzi.

Topān – to‘pon. Mosh, loviya, no‘xatning yanchilgan, mayda somoniga nisbatan ishlatiladi. *Topāni sāvurip koriš kerak – To‘ponni sovurib ko‘rish kerak.*

Čānyāl – chang‘ol. Yovvoyi tikanakli o‘simlik. Asosan, chorvadan tomorqasini ixota qilishda foydalanishgan. Ekinlarni čānyāl bilān orāp qojiš kerāgāv – Ekinlarani chang‘ol biulan o‘rab qo‘yish kerak-ov.

Čāčrātqi – sachratqi. Quyosh urgan odam cho‘miltirilsa, kun taftini oluvchi dorivor o‘simlik. *Āvvāllāri čāčrātqi juda kop bolārdi – Avvallari sachratqi juda ko‘p bo‘lar edi.*

Qārāli – qoroli. Olxo‘ri.

Qojtikān – qo‘ytikan. Qo‘ylarni juniga yopishib oladigan oladigan tikan. *Qojlārni junini olmāsā bomājdi, qojtikānlār jānvārlārdi qisip qojipti – Qo‘ylarni junini olmasa bo‘lmaydi, qo‘ytikanlar jonivorlarni qisib qo‘yipdi.*

Qijtiq – qiytiq. 1. Tomorqa yoki ekin ekiladigan dalaning burchagi. *Qijtiqdā ekin bomājdi – Qiytiqda ekin bo‘lmaydi*

Xirmānjāy – Xirmon joy. Donli ekinlarni yanchishga mo‘ljallab tayyorlanadigan joy.

⁶ To‘ychiboyev B. Yo‘ldoshev Q. Zominning til qomusi – Toshkent, “Akademnashr”, 2012.



Xāzārispān – hazorispon. Isiriq. *Tutātišgā xāzārispāndān terip ke – Tutatishga xazorispondan terib kel.*

Ismālāq – ismaloq. Dorivor, vitaminga boy o‘simlik. Erta bahorda xush iste‘mol qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevasida dialektal so‘zlar adabiy tildagidan ayrim jabhalarda farq qiladi. Chorvachilik va ekinchilikka oid dialektal so‘zlarda xalq tarixi bilan bog‘liq azaliy qadriyatlar va urf-odatlar bilan bog‘liq dialektal so‘zlar juda ko‘p. Shuning uchun ushbu shevaga oid dialektal so‘zlarni chuqur o‘rganib, tahlil qilib chiqish talab etiladi. Bu shevadagi so‘zlarni bir dialektal lug‘at qilish lozim deb bilamiz.

References:

1. Enazarov, T.(2020). Dialektologiya metodologiyasi. Innovatsiya-Ziyo.
2. To‘uchiboyev, B., Yo‘ldoshev, Q. (2012). Zominning til qomusi. Akademnashr.
3. Базарова Д., Шарипова Х. (1971). Развитие лексики тюркских языков Средней Азии и Казахстана. Фан.
4. Древнетюркский словарю. (1969). Наука.
5. Маҳмуд Кошғарий. (1963). Девону луғотит турк. Тошкент.